



**O‘TKIR HOSHIMOVNING “NUR BORKI, SOYA BOR”
ROMANIDA INSONIY FAZILATLARNING BADIY TALQINI**

Abdumalikova Jasmina Baxtiyor qizi

Termiz davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” romanida aks etgan insoniy fazilatlar, xususan, mehr-oqibat, halollik, vijdon, sadoqat va adolat kabi yuksak ma’naviy qadriyatlarning badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda qahramonlar xarakteri orqali insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va jamiyatdagi o‘rni yoritilib, yozuvchining badiiy mahorati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *“Nur borki, soya bor”, roman, insoniy fazilatlar, ma’naviyat, halollik, vijdon, mehr-oqibat, badiiy talqin, qahramon xarakteri.*

XX asr ikkinchi yarmi o'zbek adabiyoti, aniqrog'i, nasri rivojida O'tkir Hoshimovning munosib o'rni bor. Mustabid tuzum sharoitida adib o'zining haq so'zi bilan el orasida e'tibor qozondi. Yozuvchi o'z asarlarida hamisha haq gapni aytishga intildi. Shu bois ham ijodkorning hikoya, pyesa, romanlari xalqimizning sevimli asarlari qatoridan o'rin oldi. O'tkir Hoshimovning yana bir xislati, adib hech qachon yolg'on gap aytmagan, mustabid mafkura, siyosat nog'orasiga o'ynab vijdonini sotmagan, murosasozlik yo'lga kirmagan. U o'tkinchi mayllarga berilmay, so'z san'atining azaliy muammosi - shaxs jumbog'i, ijtimoiy adolat tuyg'usi ifodasi bilan qiziqdi. Adabiyot dunyosida “nasrdagi tarona”, “nasrdagi shoir” atamallari bor. Yangi o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy bilan Said Ahmad haqli ravishda prozaning shoiri deb nom olganlar. Zamonaviy o'zbek adabiyotida O'tkir Hoshimovni ham nasrdagi shoir, yetuk asarlarini esa nasrdagi qo'shiq, tarona deb atash mumkin. Xususan, adibning “Nur borki, soya bor” romani ham ana shunday asarlardan biri bo'lib, unda insoniy fazilatlarining mohiyati va hayotdagi o'rni chuqur badiiy ifodasini topgan. Roman voqealari orqali muallif insonning jamiyatdagi mavqei



nafaqat uning ijtimoiy holati, balki ma'naviy qiyofasi bilan ham belgilanishini ko'rsatadi. Asardagi qahramonlar taqdiri orqali halollik, vijdonlilik, sadoqat va insonparvarlik kabi fazilatlar ulug'lanadi. Shu bilan birga, manmanlik, xudbinlik va adolatsizlik kabi salbiy illatlar tanqid ostiga olinadi. Asarda mehr-oqibat va insoniylik masalalari alohida o'rin egallaydi. Qahramonlarning o'zaro munosabatlari, hayotiy sinovlarga bo'lgan munosabati orqali yozuvchi inson qalbining murakkab jihatlarini ochib beradi. Insonning komillikka intilishi, ezgulikka sodiqligi va boshqalarga nisbatan hamdardlik tuyg'usi asarning g'oyaviy mazmunini tashkil etadi.

O'tkir Hoshimov qahramonlar ruhiyatini ochishda badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalangan. Yozuvchi asar bosh qahramonlaridan biri Sherzod obrazi orqali insoniy fazilatlar silsilasini ochiq namoyon qilgan. Sherzod obrazi halol, birovning haqqiga xiyonat qilmaydigan, nohaqlikka guvoh bo'lsa qo'lidan kelgancha to'g'irlashga harakat qiladigan, insonlardagi ikkiyuzlamachilik, tilyog'lamalik kabi yomon illatlarnilarni sezganda ulardan uzoq yuradigan, insoniylik tuyg'usiga zid ish qiladigan insonlardan hazar qiladigan bir obraz hisoblanadi. Sherzodning hayotdagi turli sinovlarga duch kelishi, murakkab vaziyatlarda ham insoniy qadr-qimmatini saqlab qolishga intilishi uning ma'naviy yetuk shaxs ekanligini ko'rsatadi. Qahramonning ichki kechinmalari va boshqalar bilan munosabatlari orqali O'tkir Hoshimov inson qalbining nozik jihatlarini ochib beradi.

Misol uchun, Sherzod kasalxonada Sayfi Soqiyevich bilan bir palatada yotishi davomida u boylik va manfaatni hamma narsadan ustun qo'yadigan insonlarning qarashlariga qarshi turadi. Sayfi Soqiyevichning «Dunyoda yo zaring bo'lsin, yo zo'ring» degan hayotiy aqidasi Sherzod qabul qilmaydi. Aksincha, u vijdon, halollik va haqiqatni insonning eng katta boyligi deb biladi. Shuningdek, Sherzod yotgan xonada necha kunlab bir joy bo'sh yotadi ammo bir keksa yoshli chol joy kutib necha kunlab eshik yonida yotadi. Cholning har yo'talib ingraganida Sherzod ichidan zil ketadi, nahotki, shuncha katta shifoxonada bitta shu chol uchun joy bo'lmasa deb o'ziga ko'p savol beradi. Bu ish hal bo'lavermagach Sherzod



bo'lim mudirini yoniga shartta kiradida shu chol uchun bitta ham joy yo'qmi deb so'raydi. Bo'lim mudiri ham befarqlarcha unga javob qaytaradi: "Bu bizning ishimiz, siz ham borib o'z ishingizni bajaring!"- degan so'zlarni aytadi. Shunda Sherzod "Insonlarning tanasini davolaysizlar-u, ruhini o'ldirasizlar",- deb aytgan javobining o'zidayoq bu insonning naqadar oqko'ngil va vijdonli ekanligiga yana bir bora amin bo'lamiz. Bunday voqealar asar davomida ko'plab uchraydi. Buni har bir kitobxon o'z talqinicha tahlil qiladi.

Shuningdek, asarda Sirojiddin obraziga ham ko'p o'rinlarda ko'zimiz tushadi. Sirojiddin obrazi romandagi salbiy qahramonlardan biri bo'lib, u orqali yozuvchi inson tabiatidagi xudbinlik, manfaatparastlik va ma'naviy tubanlik kabi illatlarni ochib beradi. Muallif ushbu obraz vositasida insoniy fazilatlardan uzoqlashish qanday oqibatlariga olib kelishini ko'rsatishga intiladi. Asardagi voqealar davomida Sirojiddinning o'z manfaatini hamma narsadan ustun qo'yishi, atrofidagi insonlarning taqdiriga loqayd qarashi va ayrim vaziyatlarda vijdon amriga zid ish tutishi uning xarakteridagi salbiy jihatlarni namoyon etadi. Xususan, u o'z otasini, u uchun jonini bergan, nima desa muhayyo qilgan, insonni "boboy" deb chaqirishi bu undagi tarbiyaning yoshlikdan buzilganligini ko'rsatadi. Qorni to'q usti boshi but bo'lsa ham ma'nan zaif va qashshoq bir obraz sifatida gavdalanadi. O'tkir Hoshimov bu obraz orqali ham insoniy fazilatlarga zid bo'lgan omillarni, ham bolaga tarbiya berishda yo'l qo'yilgan jiddiy xatolarni ochib berishga harakat qilgan.

Bundan tashqari, asarda keltirilgan Farida obrazi ba'zi kitobxon uchun salbiy, ba'zilar uchun ijobiy obraz sifatida gavdalanadi. Faridaning Sherzod bilan bo'lgan munosabatlari shunchalik jiddiy bo'lsa ham undagi xudbinlik o'zini o'zi o'ylash kabi tuyg'ular Sherzod uchun adolatsizlikdek tuyular edi. Sherzodning qishloqda onasi, singlisi bor u uylansa ayolini ham o'z qishlog'iga olib ketmoqchi bo'ladi. Ammo Farida bunday fikrlardan yiroq, u turmush qursa ham ota-onasi bilan qoladigan ular bilan birga yashaydigan insonni qidirib yurgan edi. Bunday o'rtadagi ziddiyat va kelishmovchiliklar Sherzodning fikrlarini chalkashtirib yuborar, u ikki o't orasida kuyar edi. Vaqtlar o'tishi bilan Farida boshqa insonga turmushga chiqadi Sherzod esa o'z hayollari bila yolg'iz qoladi. Farida ota-onasi oldida o'z vazifasini



bajargan, ularni yolg'iz qoldirmagan ijobiy obraz sifatida gavdalansa, Sherzodning tuyg'ularini o'yinchoq bilib unga nisbatan nohaqlik qilganligi uning salbiy tomoni hisoblanadi.

Nur va soya ramzi - hayot falsafasi. Asarda "nur" va "soya" obrazlari ramziy ma'noga ega. Nur - halollik, pok e'tiqod, adolat va insoniylikni bildirsa, soya - riyo, manfaatparastlik va bepisandlikni anglatadi. Yozuvchi hayotda nur va soya doimiy ravishda yonma-yon bo'lishini ta'kidlaydi. Sherzod obrazi - nurning, Sayfi Soqiyevich esa soyaga xos xislatlarning timsoli sifatida tasvirlanadi. Yozuvchi hayotiy kuzatishlari asosida "agar soya ko'paygan bo'lsa, demak nur ham bor" degan falsafiy xulosaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimovning "Nur borki, soya bor" romani insoniy fazilatlarning badiiy talqiniga bag'ishlangan yuksak badiiy asarlardan biri hisoblanadi. Muallif qahramonlar xarakteri va taqdiri orqali inson ma'naviy olamining turli qirralarini ochib bergan. Xususan, Sherzod obrazi misolida halollik, mehr-oqibat, vijdon va insonparvarlik kabi yuksak fazilatlar ulug'langan bo'lsa, Sayfi Soqiyevich, uning o'g'li Sirojiddin obrazlari orqali manfaatparastlik, xudbinlik, ma'naviy zaiflik va vijdon amriga zid xatti-harakatlarning salbiy oqibatlari badiiy jihatdan yoritilgan. Asardagi ijobiy va salbiy qahramonlarning o'zaro qarama-qarshiligi orqali yozuvchi ezgulik va yovuzlik, halollik va manfaatparastlik o'rtasidagi kurashni hayotiy voqealar asosida tasvirlaydi. Natijada, o'quvchi insonning haqiqiy qadri uning mansabi yoki boyligida emas, balki ma'naviy fazilatlari, vijdoni va insoniyligi bilan belgilanishini anglaydi. Shu bois "Nur borki, soya bor" romani inson ruhiyati va ma'naviy qadriyatlarni chuqur aks ettirgan, yosh avlodni komillik, ezgulik va adolat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim asarlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'tkir Hoshimov. Nur borki, soya bor. Nurli dunyo nashriyot uyi. Toshkent, 2024.
2. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.